



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARI



Raximov Mirjalol Sultanboy o'g'li
Ma'mun universiteti NTM

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarni barqaror rivojlanishning zaruriyati, o'ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari hamda ularni barqaror rivojlanish tamoyillari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье описывается необходимость устойчивого развития предприятий в условиях цифровой экономики, его особенности, имеющиеся возможности и принципы их устойчивого развития.

Abstract. This article describes the need for sustainable development of enterprises in the digital economy, its specific features, available opportunities, and the principles of their sustainable development.

Kalit so'zlar. Raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, tamoyil, maqsad, korxonalar, atrof-muhit.

Ключевые слова. Цифровая экономика, устойчивое развитие, принцип, цель, предприятие, окружающая среда.

Key words. Digital economy, sustainable development, principle, purpose, enterprise, environment.

Kirish. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor berilib, bu borada ular faoliyatini barqaror taraqqiy qildirish yuzasidan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-son Qarori [1] qabul qilindi. Qarorning asosiy maqsadi mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy barqaror rivojlanishni amalga oshirish borasida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni sifatli bajarilishi hamda 2030-yilgacha mamlakatda korxonalarni barqaror rivojlanish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishdan iborat. Bu borada korxonalarni barqaror rivojlanishning ahamiyati shundaki, u eng yuqori foyda va xarajatlarni kamaytirishga qaratilib, fundamental tamoyillarga ega bo'lishi lozim. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishida tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy muhitni samarali rivojlantirishni talab etadi. Natijada, jamiyatdagi atrof-muhit muammolari, global iqlim o'zgarishi, ijtimoiy va gender tengsizliklar hal etiladi. Bu global nuqtai nazarga asosan, har bir korxonada barqaror rivojlanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar barqaror rivojlanishi yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida dastlab raqamli transformatsiya korxonalar uchun barqaror rivojlanishni kuchaytirish uchun muhim strategik tanlov hisoblanadi. Shuning uchun korxonalar barqaror rivojlanish modellarini ilgari surishlari kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, resurslardan foydalanishni yaxshilash, korxonalarining innovatsion harakatlarini rag'batlantirish va ichki boshqaruv sifatini oshirish korxonalar barqarorligini oshirishi mumkin[2].

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar transformatsiyasini rag'batlantirish, boshqaruv tizimini mustahkamlash va zamonning rivojlanishini qura oladigan asosiy raqobatbardoshlikni doimiy ravishda aniqlash barqaror rivojlanishga erishishning asosidir[3]. Raqamli texnologiyalar nafaqat korxonalar uchun texnologik innovatsiyalarni ta'minlaydi, balki ichki boshqaruv uchun nazariy asos va amaliy yechimlarni ham beradi. Taxmin qilish mumkinki, raqamli transformatsiya nafaqat korxonaning ichki boshqaruvi va innovatsiyalarini kuchaytirishi, balki korxonalar tashqarisidagi murakkab muhitga ham bardosh berishi mumkin, shuni umumlashtirish mumkinki, korxonaning raqamli transformatsiyasi innovatsiyalarga hamda barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarini barqaror rivojlanishini tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotning iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, monografik kuzatish, mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil va abstraklashtirish kabi usullaridan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyotga asoslangan korxonalarini barqaror raqamlashtirish transformatsiyaviy sa'y-harakatlarni ifodalaydi. Bu borada raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi texnologik taraqqiyot va atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslanadi. Shu orqali har bir korxonaning biznes strategiyalari barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtiriladi. Aylanma iqtisodiyot tamoyillari, energiya tejaydigan ma'lumotlar markazlari va barqaror ta'minot zanjiri boshqaruvi iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni boshqarish o'rtasidagi aloqa bilan namoyon bo'ladi [5]. Barqaror rivojlanish korxonalar resurslaridan foydalanishga asoslanib, uning maqsadi inson ehtiyojlarini qondirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish korxonalar bilan birgalikda butun iqtisodiyot va boshqa sohalar uchun asos bo'lishi lozim. Barqaror rivojlanish ishlab chiqarish salohiyati, inson resurslari va tabiiy muhitning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini uzoq vaqt davomida saqlashga asoslangan yo'l bo'lib ham qaraladi. Barqaror rivojlanish butun sivilizatsiya, insoniyat va barcha quyi darajadagi tizimlar uchun asosiy hosilaviy bo'lishi kerak [6].

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarini barqaror rivojlanishi iste'molchilarga nisbatan talabga ta'sir qilmasdan, hozirgi davrning yashash darajasini oshirishga imkon beradigan pul imtiyozlaridan foydalanishni anglatadi. Bu aktivlarni ularning miqdori va sifatiga ta'sir qilmasdan saqlashni anglatadi. Boshqarish mumkin bo'lgan taraqqiyotning asosi aholi, turli aktivlar, iqlimning turli qismlari va taraqqiyot o'rtasida moslashish bilan belgilanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar doirasida barqaror rivojlanishga qaratilgan turli konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ya'ni, barqaror rivojlanish konsepsiyasi quyidagi asosiy g'oyalarga asoslanadi[7]:

-birinchidan, dastlabki o'ringa qo'yilishi kerak bo'lgan dolzarb ehtiyojlarga;

-ikkinchidan, atrof-muhitga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini cheklaydigan texnologiya va yuzaga keladigan cheklovlariga.


Shular bilan birgalikda, korxonalar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar barqarorlik turlari tasnifini ishlab chiqish imkonini beradi. Barqarorlik turlari tasnifi bu tashqi muhit ta'siri, ichki omillar, strategik maqsadlar va korxonaning hozirgi individual xususiyatlariga qarab, barqaror rivojlanish mexanizmi unsurlarini o'z ichiga oladi. Xususan, tashkiliy va boshqaruv, texnologik, marketing, moliyaviy, investitsiya shular jumlasidandir. Bu borada korxonaning tashqi va ichki raqobat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish xolisona boshqaruv nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, jumladan ishlab chiqarish tizimining o'rganilmagan xususiyatlarini hal qilishni talab qiladi.

Shu bilan birga korxonada ichki yaxlitlik va tashqi muhit bilan doimiy almashinuv xususiyatiga ega bo'lgan murakkab ochiq tizimdir. Bu shuni anglatadiki, tizim o'zgaruvchisining o'zgarishi boshqa o'zgaruvchilarda mos o'zgarishlarga olib keladi. Chunki, barqarorlik avvalgi operatsion parametrlarni tiklash qobiliyatidan ko'ra tizimning moslashuvchan o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatiga ko'proq bog'liqdir. Makro va mikro darajada barqarorlikni o'lchash individual mezonlarga asoslanib, ularni bir butun sifatida baholash kerak. Barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari uning ayrim jihatlarini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi. Ular ma'lum chegaralarda o'zgarishi mumkin va ularning ma'lum bir davrdagi alohida xo'jalik yurituvchi subyektdagi miqdoriy farqi ushbu ko'rsatkich bilan tavsiflangan hududdagi vaziyatni yaxshilashga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita muayyan chora-tadbirlar samaradorligini tavsiflashi mumkin.

Shunday qilib, korxonada sodir bo'layotgan jarayonlarni har tomonlama baholash metodologiyasini ishlab chiqish kerak. Bu esa o'rganilayotgan korxonaning barqaror rivojlanishiga erishilganligi to'g'risida asosli xulosalar chiqarishga va muammolarni aniqlashga imkon beradi. Shu orqali korxonada faoliyati va uning barqarorligining yuqori darajasiga erishish dasturini ishlab chiqishga erish mumkin.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot ta'sirini hisobga olgan holda korxonalarini barqaror rivojlanishi quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Korxonalarni barqaror rivojlanish yo'nalishlari

Ushbu rasmga asosan, barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Shularni hisobga olib, har bir korxonalarda raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlash uning tamoyillari orqali amalga oshiriladi. Bu borada uning tarkibi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik kabi umumiy tamoyillardan iborat bo'ladi. Boshqa manbalarda uning tamoyillari farqlanadi. Barqaror rivojlanish quyidagi tamoyillardan iborat bo'ladi [8]:

- ekotizim va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- yer yuzidagi biologik xilma-xillikni saqlash;
- jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- inson resurslarini saqlash;
- aholi nazorati va boshqaruvini ta'minlash.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun barqaror rivojlanishning quyidagi tamoyillaridan ham foydalaniladi [9].

birinchi tamoyil - qarorlar qabul qilish jarayonlarida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni birlashtirish;

ikkinchi tamoyil - barcha insonlarning o'zaro bog'liqligi va biologik xilma-xillikni saqlash muhimligini tan olish;

uchinchi tamoyil - tabiiy resurslarni barqaror tarzda muhofaza qilish va boshqarish zarurligi;

to'rtinchi tamoyil - ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash;

beshinchi tamoyil - jamoalar va shaxslarning qarorlar qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;

oltinchi tamoyil - inson kapitaliga sarmoya kiritish va ijtimoiy farovonlikni rag'batlantirish;

yettinchi tamoyil - inklyuziv, adolatli va ekologik mas'uliyatli barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish;

sakkizinchi tamoyil - chiqindilarni kamaytiradigan va resurslar samaradorligini oshiradigan mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish usullarini qo'llash;

to'qqizinchi tamoyil - barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlash uchun innovatsiyalar, tadqiqotlar va texnologiyalar transferini integratsiyalash;

o'ninchi tamoyil - barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun davlat, biznes, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish.

Mazkur barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish orqali hozirgi va kelajak avlod uchun barqaror va adolatli jamiyatni yaratishga harakat qilish mumkin. Bu borada jismoniy shaxslar, jamoalar, korxonalar va davlat uchun ushbu tamoyillarni qabul qilishlari va hayotning barcha jabhalarida barqarorlikni ta'minlash uchun chora ko'rishlari talab etiladi.

Korxonada o'z qadriyatlarini, umume'tirof etilgan axloqiy me'yorlar va barqarorlikni boshqarishga mos keladigan qo'shimcha tamoyillarni tanlashi va belgilashi mumkin. Bu borada quyidagi tamoyillar taklif qilinadi [11]:

- qadriyatlar: xodimlarni xulq-atvor va yetakchilik qobiliyati, mas'uliyati va ishga qiziqishi;

- strategiya: rivojlanish yo'nalishi, savdo bozorlari va mijozlar ehtiyojlarini tushunish hamda to'g'ri va samarali maqsadlarni belgilash tizimi;
 - maqsadni belgilash: asosiy faoliyat ko'rsatkichlariga erishish va mukofotning turli shakllari o'rtasidagi bog'liqlik, yirik maqsadlarga erishish uchun biznes tizimi vositalariga nisbatan talabni shakllantirish;
 - ishtirok etish: xodimlarni eng yaxshi ishlarni bajarishga undaydigan jismoniy, hissiy va ruhiy holatda ularning faolligini yanada oshirish;
 - tashkiliy tuzilma: rollar, aloqalar va boshqaruv darajalarining aniq belgilanishiga erishish;
 - mijozlarga e'tibor qaratish: barcha darajadagi menejerlar va korxonalar xodimlarining o'z mijozlari va ularning asosiy talablarini bilishlarini ta'minlash;
 - buxgalteriya hisobi tizimi: boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tezkor va dolzarb axborotni shakllantirish;
 - mehnatni muhofaza qilish: rahbarlik va rahbarlar namunasini yaratish.
 - biznes tizimi infratuzilmasi: doimiy takomillashtirish vositalaridan foydalanishning shaxsiy namunasi orqali o'zgarishlar bo'yicha yetakchilarni o'qitish va biznes jarayonlaridagi to'siqlarni bartaraf etish.
- Shuningdek, ushbu tamoyillar korxonalar bilan birga, hududlarni barqaror rivojlantirishga ham imkon berib, bu quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:
- qulay transport infratuzilmasini yaratish, ma'muriy, biznes va savdo markazlari hamda ijtimoiy muassasalarning qulay foydalanishini hisobga olish;
 - ekologik jihatdan maqbul transportga ustunlik berish va jamoat transportidan foydalanishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
 - hududning demografik va iqtisodiy rivojlanishida ishonchli hisob-kitobni amalga oshirish;
 - hududlarni obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratish;
 - demografik istiqbollari va iqtisodiy xususiyatlarning funksional jihatini hisobga olish;
 - qayta tiklanadigan energiyani mahalliy manbalaridan samarali foydalanish;
 - samarali suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini yaratish;
 - maishiy chiqindilarni yig'ish va ikkilamchi materiallarni maksimal darajada qayta ishlash;
 - binolarni mahalliy landshaft xususiyatlari va mavjud milliy me'morchilik an'analariga moslashtirish;
 - ta'lim, madaniy va ma'naviy rivojlanish uchun zarur ijtimoiy infratuzilma obyektlarini yaratish;
 - jamiyat hayotini boshqaradigan ichki munosabatlarni rag'batlantirish;
 - jamoa ichidagi ishbilarmonlik va barter munosabatlarini rivojlantirish;
 - turli qiziqarli va qo'shma tadbirlar o'tkazishni rivojlantirish;
 - mahalliy o'z-o'zini boshqarish tizimini taraqqiy qildirish;
 - kichik jamoalar doirasida mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va h.k.

Xulosa va takliflar. Korxonalarda barqaror rivojlanish iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni sifatida unda tabiiy resurslar, investitsiyalar, ilmiy-texnikaviy rivojlanish, shaxsiy va institutsional o'zgarishlar bir-biriga muvofiqlashtiriladi. Ushbu

rivojlanish inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun kelajakdagi salohiyat bo'lib hisoblanadi. Barqaror rivojlanish tabiiy muhit sharoitida tabiiy tizimlarni nazarda tutadi. Korxonalarda barqaror rivojlanishga o'tish konsepsiyasini maqsadli va iqtisodiy o'sish asosida tabiatni muhofaza qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Fikrimizcha, korxonalarda barqaror rivojlanish atrof-muhit va resurslarni saqlab qolgan holda kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmasdan, insonning hozirgi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar darajasida barqaror rivojlanish manfaatlarga qaratilgan biznes yuritishning an'anaviy usullaridan ijtimoiy yo'naltirilgan biznes amaliyotiga o'tishni anglatadi. Keng talqin qilinadigan barqarorlik esa korxonalarda ijtimoiy va ekologik qiymatni miqdoriy o'lchash usullari va vositalarining mavjudligini talab qiladi. Hamda, unda zarur vositalarni shakllantirish masalasi korxonalarining biznesi amaliyotida tobora muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 83-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-5870397>
2. Baierle, I.C., Siluk, J.C.M., Gerhardt, V.J., Michelin, C.D.F., Junior, Á.L.N., Nara, E.O.B., 2021. Worldwide innovation and technology environments: research and future trends involving open innovation. *J. Open Innov.: Technol. Mark. Complex.* 7 (4), 229.
3. F. Wang, B. Guo, Z. Wang, et al., The impact of digital economy on the export competitiveness of China's manufacturing industry, *Math. Biosci. Eng.* 20 (2023) 7253–7272.
4. A. Bharadwaj, O.A. El Sawy, P.A. Pavlou, N. Venkatraman, Digital business strategy: toward A next generation of insights, *MIS Q.* (2013) 471–482.
5. Bakhoviddinov I.I. Sustainable development in the digital economy: balancing growth and environmental concerns. // "Descendants of Al-Farghani" electronic scientific journal of Fergana branch of TATU named after Muhammad al-Khorazmi. Vol:1, Iss:3, 2023. - p. 48.
6. Устойчивое развитие: Новые вызовы: Учебник для вузов. / Под общ. ред. В.И. Данилова-Данильяна, Н.А. Пискуловой. - М.: Издательство «Аспект Пресс», 2015. - с.26.
7. Мнацаканян А.Г., Харин А.Г. Принципы устойчивого развития в управлении компанией. // Социально-экономические явления и процессы, Т. 11, № 10, 2016 - с. 42.
8. <https://www.geeksforgeeks.org/principles-of-sustainable-development/>
9. <https://www.linkedin.com/pulse/10-principles-sustainable-development-academy-of-public-policies-dj4nc>
10. Колобов А.В. Ключевые принципы устойчивого развития бизнес-системы предприятия. // Управленческие науки, Т.10, №3, 2020. - с. 22.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

